

**INNOVATSION TA'LIM VOSITASIDA BILISH JARAYONLARINI  
FAOLLASHTIRISH****Djurayev Elyorjon Madaminovich***Farg'onan davlat universiteti*

**Annotatsiya:** *Maqolada virtual doskalar va umumiy fanlar bo'yicha darsliklar yaratish haqida so'z boradi texnik fanlar, shuningdek, hozirgi kundagi o'qituvchilarni tayyorlash muammolari axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga bo'lgan talablar ortib bormoqda.*

**Kalit so'zlar:** *kommunikatsiya, texnik fanlar, virtual doskalar, texnologiyalar, ta'lim.*

Bugungi kunda axborotlar shiddati va yangiliklar oqimi tobora kundalik hayotimizning ajralmas bo'lagiga aylanib bormoqda. Bu esa o'z o'mida har bir shaxsdan fikriy yetuklikni, to'g'ri mushohada yurita olishni, axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi. Ayniqsa bu jarayon jamiyatning sezilarli qismini tashkil etuvchi yoshlar ongi va shu o'rinda keskin burilishlar, yangicha qarashlarni vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim mazmunini takomillashtirish, integratsiyalash, axborot texnologiyalariga asoslanilgan ta'limga tashkil etish esa ana shunday tezkor davr taqozosidir. Sog'lom fikr yurituvchi va ma'naviy jihatdan mukammal, aqlan yetuk, fikran teran, rivojlangan shaxsnı tarbiyalash ta'limga yosh xususiyatlariiga e'tiborli bo'lish, o'qitishda ta'limga barcha bo'g'inlararo aloqadorligini ta'min etish va shaxs ongi va tafakkurida yangicha g'oya, tasavvurlarni shakllanishiga imkon beruvchi zamонави faol usullardan foydalanishni talab etadi.

Oliy ta'limga ijtimoiy, gumanitar fanlar doirasida ta'limga noan'anaviy usullarini qo'llanilishi talaba yoshlarni ijodiy tafakkurini shakllanishida, muloqot imkonini kengayishida, voqeа-hodisalarga nisbatan baholashlari va qarashlarini shakllanishida va yana shuningdek, dars jarayonida vujudga kelgan qizg'in munozara va mantiqiy yechimlarni bevosita ishtirokchisi sifatida o'z faoliyatidan psixologik qoniqish hissini vujudga kelishida muhim ahamiyatga ega. Zero, qanchalik ta'limga jarayonidagi berilayotgan yangi ma'lumotlar talabadagi mavjud tasavvurlar va tajribalarga uyg'unlashgan bo'lsa, uni idrok etish, bilish jarayonlari orqali tahlil qilish va baholash faollashadi. 1-2-kurs talabalarida abstrakt tafakkur, mantiqiy fikrlash, tanqidiy baholash, qiyoslab tahlil qilish imkonini yanada takomillashishida «Muammoli o'qitish», «Aqliy xujum», «Individual o'qitish» kabi turli subyektiv faollikni talab etuvchi usullar orqali ta'limga tashkil etilishi yuqori samarali ahamiyatga ega. Shuningdek, ta'limga eng so'nggi internet xabarlaridan foydalanilgan va turli slaydlar ko'rinishida tashkil etilishi talabalarda ijodiy tafakkurni, ichki faollikni, erkin muloqotga kirishish, o'z hulqini boshqarish imkonini shakllantiribgina qolmay, muloqot madaniyati va saviyasini o'zlashtirishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shaxs ma'naviyati, ruhiy olami ko'rinishlari uning muloqoti orqali namoyon bo'ladi. Sir emaski, bugungi kunda yoshlarni muloqot saviyasi, madaniyati, muloqot orqali hissiy holatlarini bayon eta olish imkoniyatida qo'pol nuqsonlar ko'zga tashlanadi. Bu muammo yechimi esa ularni ta'limga jarayonida o'z ustida ishlashlarini tashkil etish, o'zga shaxslarni va o'zini o'zgalar qarashlari (refleksiya) bilan baholay olishlarini yuzaga keltirish

orqali hal etish mumkin. Bu esa keng dunyoqarashni, boy ma'lumotlar zahirasini, turli axborotlar tizimidan foydalana olishlarini taqozo etadi.

Bundan tashqari ta'limda individual xususiyatlarni e'tiborga olgan holda va ichki imkoniyatlarga ko'ra turli usullarni qo'llanilishi, talabalarni turli vaziyatlarda faollik ko'rsatishlarini talab etilishi ulardagi ochilmay qolgan imkoniyatlarni, zabit etilmagan yangi qirralarni kashf etilishiga turki bo'ladi. Mana shunday shaxs bilish jarayonlarini o'zaro uyg'unligini, va faolligini talab etadigan usullardan biri bo'lgan «Aqliy xujum» usuli mantiqiy fikrlashni, xotira, diqqat, idrok, hayol, nutq jarayonlari uzviyilagini, tafakkur tezligi va nutqiy mahoratni mukammal darajasini namoyon etishni talab qiladi. Bundan tashqari hal etilayotgan muammo yechimiga qadar turli yondoshishlar, ta'riflar keng qamrovli fikr yuritishga, o'z aqliy salohiyatini qay darajada ekanligini baholay olishga sharoit yaratadi. Psixologik nuqtai nazardan, shaxs o'z qobiliyatlari va imkonlarini qay darajada adekvat baholay olishi uni jamiyatda faollik ko'rsatishiga, shaxslararo munosabatlар tizimiga oson kirisha olishiga, ichki salohiyatidan oqilona, samarali foydalana olishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari bir xillikka yo'g'rilgan ta'lim mazmuni shaxs xotirasida kam qo'zg'olishlar hosil qiladi, tasavvurlar tizimida assotsiativ bog'lanishlar uzviyiligi faol bo'lmaydi.

Ta'limdagи ma'lumotlar tizimi qanchalik yangi bo'lib, innovatsion texnologiyalar asosida yoritilgan tarzda uzatilsa o'zlashtirish jarayonida sifat darajasini oshishiga olib keladi. Ta'limda iloji boricha vizual vositalar, slaydlar asosida o'qitishni tashkil etilishi aniq, mavhumliklarsiz, mayjud bilimlar bilan bog'langan mustahkam tasavvurlar tizimida o'rin olgan tushunchalarni xosil bo'lishiga olib keladi. Interfaol usullardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish ham shaxs faolligini ta'minlovchi, o'ziga nisbatan talabchanlikni oshiruvchi, bevosita o'zini vaziyatni faol ishtirokchisi sifatida erkin idrok qilishiga, mayjud nuqson va kamchiliklarini to'g'rilashiga ta'sir etuvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Bunda esa ta'limni multimedia ko'rinishida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Ta'limda qanchalik murakkab bilish jarayonlarini ishtiroki talab etilishiga erishilsa, talaba shaxsini yashirin bo'lgan ichki imkoniyatlari, qobiliyat qirralari namoyon bo'ladi. Bevosita ta'lim jarayonida talaba o'zi ham ta'lim mazmunini yorituvchi sifatida faollik ko'rsatishi, muammoni ifodalashda izlanishi o'zlashtirish darajasini yuqori saviyaga ko'tarilishiga olib keladi. Talaba shaxsini barkamol ma'naviy-ruhiy olami mukammalliligini, teran intellektual salohiyatini shakllantirish, yetuk kamolot egasi qilib tarbiyalash avvalo ta'lim jarayonida belgilanadigan aniq maqsadlar bilan baholanadi.

Taraqqiyot sari yuz tutib borayotgan bugungi axborotlar asri ertangi kun yoshlaridan turli muammoli vaziyatlarda o'zini-o'zi to'g'ri baholay oladigan, mustaqil fikriga ega bo'lgan, aqliy va ruhiy imkoniyatlaridan yuksak sa'yи-harakatlar yo'lida foydalana oladigan ijobjiy xususiyatlar sohibi bo'lishni taqozo etmoqda. Bu esa to'g'ri tashkil etilgan ta'sirchan, innovatsion ta'lim hamda o'qitish jarayonida tarkib topib boradigan insoniy sifatlar, ahloqiy xususiyatlar, ko'nikmaga aylanib boradigan ijodiy faollik darajasi bilan belgilanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Исломов, И. А. (2022). ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТЕХНИК ҲАРАКАТЛАРИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ АСОСИДА ЧАҚҚОНЛИК СИФАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ (КУРАШ МИСОЛИДА). *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(4), 7-11.
2. Islamov, I. A. (2021). Fundamentals of promotion of sports and competitions and physical training among school students. *Current research journal of pedagogics*, 2(06), 85-89.
3. Islomkhoja, I. (2020). Socio-pedagogical purposes of modern physical education. *Electronic journal of actual problems of modern science, education and training*.
4. Azimkhojaevich, I. I. (2022). PEDAGOGICAL FEATURES OF INCREASING STUDENT MOVEMENT ACTIVITY (ON THE EXAMPLE OF WRESTLING AND MOVING GAMES). *Science and innovation*, 1(B2), 295-299.
5. Islomkhoja, I. (2021). STUDY OF STUDENT LEVELS OF MOVEMENT ACTIVITY AND INTEREST IN PHYSICAL TRAINING AND SPORTS TEACHER OF FACULTY OF PHYSICAL CULTURE. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.5 Pedagogical sciences).
6. Azimkhujaevich I. I., Madaminovich D. E. SCIENTIFIC AND THEORETICAL APPROACHES TO THE USE OF THE GAME METHOD IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS FOR SCHOOLCHILDREN (PECULIARITIES OF THE PHYSIOLOGICAL DEVELOPMENT OF SCHOOLCHILDREN) //IJDOKOR O'QITUVCHI. - 2022. - T. 2. - №. 24. - C. 15-21.
7. Azimxo'jayevich I. I. Training of Personnel in the Field of Physical Education and Sports //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. - 2022. - T. 15. - C. 156-160.
8. Исломова Н. Л. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ //ИТМОИY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. - 2022. - Т. 2. - №. 12. - С. 12-17.
9. Исломов И. А. ИССЛЕДОВАНИЕ ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ И ИНТЕРЕСА К ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ У УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ //IJDOKOR O'QITUVCHI. - 2022. - Т. 3. - №. 25. - С. 80-85.
10. Исломов И. А. АНАТОМО-ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ШКОЛЬНИКОВ МЛАДШЕГО, ПОДРОСТКОВОГО И ЮНОШЕСКОГО ВОЗРАСТА //International Bulletin of Applied Science and Technology. - 2023. - Т. 3. - №. 4. - С. 596-600.
11. Islamov I. A., Parpiev O. A. SOME MODERN PEDAGOGICAL FEATURES OF THE PROCESS OF PROFESSIONAL TRAINING OF THE TEACHER OF PHYSICAL CULTURE //Scientific Bulletin of Namangan State University. - 2020. - Т. 2. - №. 1. - С. 313-316.
12. Исломов, И. А., & Джураев, Э. М. (2023). РОЛЬ ЖЕНЩИН В РАЗВИТИИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В СЕМЬЕ. O'ZBEKISTONDA

FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18),  
1270-1275.

13. Rejapovich K. G. Issues of formation of physical work ability and its functional components in young volleyball players //Zien Journal of Social Sciences and Humanities. - 2021. - T. 2. - C. 27-30.
14. Qurbanov G. Development of physical working capacity and its functional components in young volleyball players. - 2022.
15. Khasanov A. T., Kurbanov G. R., Mamatov U. E. Experimental substantiation of efficiency accented physical education classes students of the faculty of "Military education" //INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. - 2022. - T. 16. - №. 10. - C. 157-164.
16. Kurbanov G., Qurbanali S., O'tkir R. VOLLEYBALL OUTDOOR GAMES //American Journal of Pedagogical and Educational Research. - 2023. - T. 12. - C. 62-71.
17. Qurbanali S., O'tkir R. SPECIAL PHYSICAL TRAINING FOR VOLLEYBALL PLAYERS AT THE FIRST STAGE OF TRAINING //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. - 2023. - T. 15. - C. 34-41.
18. Маматов У., Курбонов Ф. МОРАЛЬНО-ВОЛЕВАЯ ПОДГОТОВКА НАЧИНАЮЩИХ САМБИСТОВ К БОРЬБЕ ЛЁЖА //International Bulletin of Applied Science and Technology. - 2023. - T. 3. - №. 4. - C. 570-573.
19. Qurbanov G., Mamatov U. VOLLEYBALL GAME TECHNIQUE AND ITS RULES //International Bulletin of Applied Science and Technology. - 2023. - T. 3. - №. 4. - C. 86-88.
20. Tulanovich Y. T., Madaminovich D. E., Baxodirovna X. B. Rhythmic gymnastics in the system of physical education //Innovative Technologica: Methodical Research Journal. - 2021. - T. 2. - №. 12. - C. 25-29.
21. Djuraev E. M., Akzamov S. D. SOME PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF HEALTH CULTURE IN STUDENTS //Scientific Bulletin of Namangan State University. - 2020. - T. 2. - №. 1. - C. 308-312.
22. Rozmatovich U. S., Elyor D. TEACHING ATTACK TACTICS TO FOOTBALL PLAYERS //INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. - 2022. - T. 16. - №. 10. - C. 125-132.
23. Джураев Э. М. ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ МАШФУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ШАРТ-ШАРОИЛЛАРИ //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. - 2022. - T. 3. - №. 4. - C. 18-22.
24. Джураев Э. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МНОГОЛЕТНЕЙ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СПОРТИВНОГО РЕЗЕРВА В ФУТБОЛЕ //International Bulletin of Applied Science and Technology. - 2023. - T. 3. - №. 4. - C. 626-630.

25. Nurmatova M. M., Nurgaliev I. N., Rashidova S. S. Study of the complex-forming ability of polygalacturonic acid with tin ions //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. - 2021. - Т. 11. - №. 2. - С. 1414-1421.

26. Raximov M., Nurmatova M. МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ И БИОХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ КРОВИ БЫЧКОВ КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА //Science and innovation. - 2022. - Т. 1. - №. D8. - С. 12-16.